



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 280 sahifa,  
22-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
<a href="#">Abdiqayumova Malika</a>	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni .....	14
<a href="#">Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi</a>	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish .....	18
<a href="#">Atamirzayeva Ezoza</a>	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan .....	22
<a href="#">Aminova Asilaxon Sobir qizi</a>	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
<a href="#">Уразова М. Б., Абатова У. Б.</a>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi .....	30
<a href="#">Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
<a href="#">Gaipova Akjunis Qayratovna</a>	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
<a href="#">Alimov Bekzod Nematovich</a>	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi .....	41
<a href="#">Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</a>	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar .....	48
<a href="#">Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</a>	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education .....	53
<a href="#">Yusupova Mukhabbat Anatolyevna</a>	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
<a href="#">Erkinova Sevara Najmiddin qiz</a>	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study .....	61
<a href="#">Gulsara Khakimova</a>	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
<a href="#">Hikmatova Jamila Fatox qizi</a>	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
<a href="#">I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna</a>	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi .....	73
<a href="#">Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi</a>	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
<a href="#">Murodova Farangis G'anisherovna</a>	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi .....	81
<a href="#">Ravshanova Xafiza Komilovna</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi .....	85
<a href="#">Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna</a>	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish .....	89
<a href="#">Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi</a>	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
<a href="#">Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi</a>	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	96
<i>Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi</i>	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции .....	101
<i>Улугмурадова Шохсанам</i>	
Shaxs o'z-o'zini anglashining ijtimoiy-psixologik jihatlari .....	105
<i>Bobonazarov Oybek Shoyim o'g'li</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990yy).....	108
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Tabiatshunoslik darslarida steam yondashuvi asosida ta'limni tashkil etish metodlari .....	111
<i>Gulnora Narmatova Tojiyevna</i>	
AI-Mediated Coil in Oral English Teacher Education: a Didactic Model for Developing Intercultural Communicative Competence.....	115
<i>Mukhammadiyeva Khalima Saidakhmadovna</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress jarayonining ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	119
<i>Xotamova Madinabonu Iloxmon qizi</i>	
Pedagogik mahorat fani asosida bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	123
<i>Xurramova Mohidil Baxtiyorovna</i>	
Bo'lajak kutubxonachilarda ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini shakllantirish .....	126
<i>O'rozov Abdurasul Norboyevich</i>	
Методологические подходы к развитию духовно-творческого потенциала детей младшего школьного возраста .....	130
<i>Хасанова Гулшод Касимовна</i>	
Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	134
<i>Rustamova Shoxista Omonjonovna</i>	
O'rta maktab yoshidagi o'quvchilarda voleybol mashg'ulotlarining psixoemotsional holat va ijtimoiy faollikka ta'siri .....	138
<i>Xonimqulova Durdona</i>	
Farzandlar tarbiyasida otalik va onalik hissining shakllanishining o'ziga xosligi .....	141
<i>Tursunboyeva Gavharoy Abdivohid qizi</i>	
O'quv jarayonida raqamli kontent (elektron darslik, multimedia materiallari) yaratish texnologiyalari.....	145
<i>Quvatov Shuxrat Akmurodovich, Rashidov Anvarjon Sharipovich</i>	
Scratch dasturida harflarni vizuallashtirish orqali 1-sinf o'quvchilarining tasavvurlarini rivojlantirish usullarini takomillashtirish.....	150
<i>Normurodova Sadoqat Xoliqulovna</i>	
Vaqttni boshqarish hamda to'g'ri taqsimlashning pedagog hayoti va faoliyatidagi ahamiyati.....	155
<i>Tursunova Nilufar</i>	
Sun'iy intellektning ingliz tili o'qitishdagi roli .....	159
<i>Burxonova Aziza Ikhtiyorovna, Negova Feruza Sharifovna</i>	
Разработка системы адаптивной генерации контрольных вопросов из учебных материалов на узбекском языке на основе гибридного подхода ИИ и таксономии Блума .....	162
<i>Бегалиев Жалолиддин Камолитдинович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Применение данных беспилотной авиации для обновления картографических данных .....	168
<i>Хакимов Дониёр Бахтиёр угли, Бурунова Муниса Баходировна</i>	
The Role and Significance of the Acmeological Approach in the Managerial Activity of School Principals.....	172
<i>Normurodova Aziza Zuxriddin qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda tarbiya darslarini samarali tashkil etishga o'rgatish: mazmuni, shakli va metodlari ..	178
<i>Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlari.....	184
<i>Ashurova Aziza Erkinovna</i>	

Mintaqaviy sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini tahlil qilish va baholashning zamonaviy usullari (BPM, Lean, Six Sigma yondashuvlari misolida) .....	188
<i>Azimova Maxfuza Rashidovna</i>	
O'zbekistonda turli etnik guruhlarda mehnat motivatsiyasining qiyosiy tahlili.....	193
<i>Erkinova Sevara Najmiddin qizi, Saidakbarova E'zozaxon Muzaffar qizi</i>	
"Geogebra" dasturi yordamida geometriya va matematik analiz kursini o'qitishda vizual tafakkurni rivojlantirish metodikasi.....	196
<i>Fayzullayeva E'zoza O'tkir qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida raqamli transformatsiya texnologiyalarini qo'llashning zarurati.....	200
<i>Musurmanova Shodiya Xolmuratovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish.....	204
<i>O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li, Boymurodova Shahzoda Alisher qizi</i>	
Gimnastikada akrobatik mashqlarni rivojlantirish metodikasi .....	208
<i>Raxmatova Nodira Muxtorjon qizi</i>	
Suggestiv metodlar asosida xulqi og'ishgan bolalar uchun tarbiyaviy mashg'ulotlarni loyihalash .....	212
<i>Shermatova Manzura Ikromjanovna</i>	
Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorlash ...	216
<i>Sanayeva S. B., Toshqulova Z. U.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	220
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Понятие искусственного интеллекта в контексте образования и его педагогические функции .....	224
<i>Каримова Сабина Собировна</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy barqarorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari....	230
<i>Akramjonova Feruza Akramjonovna</i>	
Demografik yuklama sharoitida maktab pedagogik jamoasini samarali boshqarishning hr-strategiyalari.....	233
<i>Axmadqulova Ozodaxon Hamidullo qizi</i>	
Kasbiy identifikatsiya – shaxsning kasbiy o'zligini shakllantirish omili sifatida .....	236
<i>Bazarov Xayotbek Ne'matovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida qoraqalpoq xalq ertaklari asosida multimediyali mahsulotlar yaratish samaradorligi.....	240
<i>Bekimbetova Aynagul Amangeldievna, Ollaberganova Mohira</i>	
Odam anatomiyasi va fiziologiyasi darslarida muammoli ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning ijodiy izlanuvchanligini faollashtirish.....	245
<i>Haydarova Pardaxol Boboqulovna</i>	
Chet el va O'zbekiston tajribasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishning metodologiyasi .....	249
<i>Inomova Madina</i>	
Boshlag'ich ta'lim tabiiy fanlarini o'qitishda o'quvchilarning ijodkorligini shakllantirish metodikasi.....	253
<i>Ismatova Zulayho Asadovna, Avazova Gulnoza Qodirjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishning samarali yo'llari .....	256
<i>Ismatova Zulayho Asadovna, Xamroyeva Ozoda Norbo'ta qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning so'z boyligi va nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish .....	259
<i>Mambetova Lobar Mirzavali qizi, Rajabova Nafisaxon Dilmurod qizi</i>	
Kasbiy faoliyatda pedagogik improvizatsiya ijodiy kompetensiya sifatida .....	264
<i>Miraxmedova Dilafro'zxon Nurilloxon qizi, Jo'rayeva Gulshodaxon Ibrohimjon qizi</i>	
Media savodxonlik tushunchasi va uning pedagogik ta'limdagi ahamiyati.....	267
<i>Salomova Lobar Sobir qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirish metodikasi .....	271
<i>Tursunova Malika Baxtiyor qizi, Aminova Oltinay Davranbek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi asosida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi .....	274
<i>Xaydarova Dilafuz Abdukurim qizi</i>	



# BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGI VA NUTQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Mambetova Lobar Mirzavali qizi  
Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti (PhD)

Orcid ID: 0009-0005-5354-3628

Rajabova Nafisaxon Dilmurod qizi  
Nizomiy nomidagi O'zMPU 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda matn bilan ishlash usullarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda samarali metod va topshiriqlar tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, so'z boyligi, nutqiy ko'nikma, interfaol metodlar, nutqiy kompetensiya, matn bilan ishlash.

**Abstract:** This article highlights the issues of increasing students' vocabulary and developing speech skills in primary school reading literacy classes. The study analyzes the importance of interactive methods, innovative pedagogical technologies, and methods of working with text. Additionally, effective methods and tasks are recommended for developing students' oral and written speech. As a result, effective ways to expand the vocabulary and develop speech competence in reading literacy classes are determined.

**Key words:** reading literacy, vocabulary, speech skills, primary education, interactive methods, competence, working with text.

**Аннотация:** В данной статье освещаются вопросы повышения словарного запаса и формирования речевых навыков учащихся на уроках читательской грамотности в начальных классах. В исследовании анализируется значение интерактивных методов, инновационных педагогических технологий и методов работы с текстом. Также рекомендуются эффективные методы и задания для развития устной и письменной речи учащихся. В результате определяются эффективные способы расширения словарного запаса и развития речевой компетенции на уроках читательской грамотности.

**Ключевые слова:** читательская грамотность, словарный запас, речевые навыки, начальное образование, интерактивные методы, компетенция, работа с текстом.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirish fanning oldiga qo'yilgan asosiy vazifalaridan sanaladi. Bu bosqichda o'quvchilarda nafaqat o'qish ko'nikmalari, balki fikrlash, tushunish va matn bilan ishlash kompetensiyalari shakllanadi. Shu sababli o'qish savodxonligi darslarining maqsad va vazifalarini to'g'ri belgilash hamda ularni samarali amalga oshirish ta'lim sifati va natijadorligining muhim omili hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda ongli, ifodali va tez o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, matn mazmunini anglash, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat<sup>[1]</sup>. Bunda o'quvchi faqatgina harflarni tovushga aylantiruvchi emas, balki o'qigan matni ustida fikr yurita oladigan, uni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lay oladigan shaxs sifatida shakllanishi ko'zda tutiladi.

Ma'lumki, o'qish ko'nikmasi orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi. O'qish o'quvchida ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtiriladigan qobiliyat emas, balki shaxsning butun umri davomida turli kontekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirilib boriladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir<sup>[2]</sup>.

Tilshunos M.Gulyamova "Nutq faoliyatining bu turi orqali axborot-ma'lumot olish, dunyoqarashni kengaytirish hamda so'z boyligini oshirib borishga erishiladi, ya'ni o'quvchilar kerakli axborotni oladilar, o'z bilimlarini oshiradilar, mustaqil va tanqidiy fikrlaydilar, bu jarayon retseptiv qobiliyatdir<sup>[3]</sup>, - deydi.

O'qish bosqichma-bosqich yuzaga keladigan belgilarni dekodlashning kognitiv harakatidir. O'qish nutq faoliyatining turi sifatida yozma axborotni idrok qilish, tushunish, mulohaza yuritish va munosabat bildirishga qaratilgan murakkab jarayondir.

Olima N.N.Smetannikovaning fikricha, "O'qish savodxonligi shaxsning intellektual qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari asosida shakllanadigan shaxsiy sifati, shaxsning umumiy madaniyati asosida shakllangan, paydo bo'ladigan ta'lim, akademik, ijtimoiy muammolarni hal qilish imkoniyatini ta'minlaydigan o'qishni saqlash sifatidir<sup>[4]</sup>. Ushbu nutqiy faoliyat turining rivojlanganlik darajasi o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari bilan birga ulardagi insoniy fazilatlarini o'sib borishida nutqiy madaniyat va milliy o'zlikni anglashga imkon beradi<sup>[5]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi.

O'qish malakalarining sifatlariga badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi<sup>[6]</sup>. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

O'qish malakasining sifatleri o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi ongli o'qish hisoblanadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida to'xtamlarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi, to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish savodxonligini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O'qish savodxonligini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Psixolog olim T.G.Yegorov o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich<sup>[7]</sup>.

Analitik bosqich savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so'zni sidirg'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish avtomatlasha boradi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin.

To'g'ri o'qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarni buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi.

M.Odilova va T.Ashrapovalar "Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir<sup>[8]</sup>, - deb ta'kidlaydilar.

Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: "To'g'ri o'qish - bu materialni tovush tomondan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir<sup>[9]</sup>. Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.
2. So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.
3. So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.
4. Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.
5. To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.
6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.
2. Matni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.
3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish.
4. Matni diqqat-e'tibor bilan o'qishlari uchun sharoit yaratish.
5. Oldin ichda o'qitish, so'ng ovoz chiqarib o'qitish.
6. O'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matni oson, o'rtacha qiyinlikda va qiyin o'qiladigan o'rinlarini belgilab olib, unga kuchi etadigan o'quvchilarga oldindan taqsimlab berish.
7. O'quvchilarning o'qishini muntazam tekshirib turish.
8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to'g'ri tuzatish yo'lini aniqlash.
9. O'quvchilarni xato qilish mumkin bo'lgan o'rindan ogohlantirib turish.
10. Xatcho'pdan foydalanish.
11. Xato o'qish o'quvchining shaxsiy ko'ruv sezgisiga bog'liq bo'lsa, bu jihatni ham hisobga olish.

O'qituvchining tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi:

1. O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, o'quvchini o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin.
2. Xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

Tez o'qish me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish tez o'qish deyiladi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuviy murakkabligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qaydarajada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini

hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarning o'qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlardan biri ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to'g'riligiga, asar voqealari va qahramonlarning xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydigan o'qish sifatlardir. Ifodali o'qish. Ifodali o'qish intonastiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. "Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir"<sup>[10]</sup>, deb ta'kidlaydi metodist olim M.A.Ribnikova. Demak, ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emostionalligini intonastiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir<sup>[11]</sup>.

Intonastiya (ohang). Intonastiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulyastiyasi va aniq dikstiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish(gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuyiy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.
2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uning o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.
3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarining maqsad va vazifalari zamonaviy ta'lim talablari asosida tobora kengayib bormoqda. Ular nafaqat o'qish ko'nikmalarini, balki o'quvchining shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, ushbu darslarni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, - 2009. 352 b.
2. Mambetova L.M. Some aspects of the development of the speaking competence of students during the lesson process // American Journal Of Social Sciences And Humanity Research (ISSN – 2771-2141), Volume 03, ISSUE 09, September 2023, P. 13-18. <https://doi.org/10.37547/ajsshr>
3. Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув: Фал. фан. док. (PhD) ... дисс. Тошкент, 2019. - 43 б.
4. Smetannikova N.N. Reading, Literacy, Readers Competence: Development Strategy // Russian Journal of Library Science. - 2017; 66(1): 41-48с.
5. Mambetova L.M. Distinctive features of the development of speech competence // "Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 18-noyabr 2023-yil, 629-631-betlar
6. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, - 2009. 352 b.
7. Егоров, Т. Г. Психология овладения навыком чтения / Т. Г. Егоров. – Санкт-Петербург: Каро, 2006. – 304 с.
8. Odilova M., Ashrapova T. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari. Toshkent, - 1996.
9. Яковлева В.И. Обучение чтению : учеб. пособие для учителей нач. классов / В. И. Яковлева. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 80 с. Рыбникова М.А. Очерки по методике литературного чтения : учеб. пособие для вузов / М. А. Рыбникова. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 297 с.
10. Mambetova L.M., Rajabova N.D. SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING THE SPEECH COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(11), 2390-2392.
11. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/8285>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.